Xalq sözi

Özbekiston – kelajagi buyuk davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRIŞ VA JAMIYATNI YUKSALTIRIŞ YILI

1991-yil 1-yanvardan çiqa boşlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2026-yil 4-noyabr, № 231 (9402) Çorşanba

Saytimizga ötish uçun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

KÖHNA BUXORONING YANGI TARIXI: STRATEGIK LOYIHALAR, BUNYODKORLIK RUHI VA JADAL ÖZGARIŞLAR

Prezident Şavkat Mirziyoyev 3-noyabr kuni Buxoro viloyatiga taşrif buyurdi. Davlatimiz rahbari tarixiy merosni asraş va turizm infratuzilmasini rivojlantiriş borasidagi işlar, şuningdek, sanoat va qişloq xöjaligida amalga oşirilayotgan loyihalar bilan tanişdi.





Taşrif Kogon tumanida joylaşgan Bahouddin Naqşband maqbarasi ziyoratidan boşlandi. Bu yerda Qur'on tilovat qilinib, xalqimizga tinçlik va farovonlik tilab, duo qilindi.

Xoja Muhammad Bahouddin Naqşband XIV asrda yaşab ötgan buyuk alloma, tasavvufdagi naqşbandiya tariqatining asosçisidir. Uning maqbarasi atrofida asrlar davomida şakllangan me'moriy majmua bugun ham islom olamidagi e'zozli ziyoratgohlardan biri hisoblanadi.

Har kuni örtaça 15 mingga yaqin kişilar ziyorat qilayotgan Bahouddin Naqşband me'moriy majmuasi "Ipak yöli: Zarafşon – Qoraqum koridori" tarkibida YUNESKOning Butunjahon merosi röyxatiga kiritilgan.

Sönggi yillarda majmuaning tarixiy qiyofasini asraş va ziyoratçilarga qulaylik yaratiş böyiça işlar olib borildi. XV asr çizmalari asosida "Doniyolbiy otaliq" madrasasi va "Toqi miyona" darvozasi ta'mirlandi, muzey ekspozitsiyasi hamda ilmiy-tadqiqot markazi taşkil etildi.

Prezidentimiz Buxoro asrlar davomida ma'rifatli islom taraqqiyotida muhim örin tutib kelganini ta'kidladi. Bu boy ma'naviy merosni çuqur örganiş va undan yoşlar tarbiyasida samarali foydalaniş, ularni ilm-ma'rifatga undaş zarurligini qayd etdi.

– Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy va Imom Moturidiy bobolarimiz nomi bilan boğliq majmualar – bularning barçasi bir maqsadga xizmat qiladi: buyuk ajdodlarimiz ilmiy merosini davom ettiriş va yoşlarimizni şu ruhda tarbiyalaş, – dedi davlatimiz rahbari.

Şundan söng Prezident Şavkat Mirziyoyev Buxoro şahridagi Kongress-xoll majmuasi va zamonaviy mehmonxonalar qurilişini közdan keçirdi.

Keyingi yillarda Özbekistonga kelayotgan xorijlik sayyohlar soni izçil ösmoqda. 2025-yilda mazkur körsatkiç 2016-yildagiga nisbatan qariyb olti barobar, turizm xizmatlari eksporti esa ön bir karra oşdi. Şu bilan birga, mamlakatimizda yirik xalqaro tadbirlar ötkaziş uçun zamonaviy infratuzilmaga talab ortib bormoqda.

Majmua şaharning ana şunday tadbirlarga mezbonlik qiliş imkoniyatini kengaytiradi. Kongress-xoll forumlar, oliy darajadagi uçraşuvlar va boşqa yirik anjumanlarni ötkazişga xizmat qiladi.

Qiymati 60 million dollar bölgan loyiha doirasida 14,5 ming kvadrat metr maydonli bino qurilmoqda. Hozirgi kunda asosiy betonlaştiriş işlari yakunlanib, taşqi muhandislik tarmoqlarini tortiş, fasad va tom qismlarini barpo qiliş davom etmoqda.

Şu hududda 37 million dollarlik "Hilton Garden Inn" mehmonxonasi ham qad rostlamoqda. Yetti qavatli, 212 xonali mehmonxonada yer osti avtoturargohi közda tutilgan. Binoning asosiy konstruksiyalari qurib bitkazilgan, hozir içki devorlar, muhandislik tarmoqlari va fasad işlari olib borilmoqda.

Yana bir loyiha – 39,6 million dollarlik "Holiday Inn" mehmonxonasi. Bu inşoot ham yetti qavatli, 212 xonali böladi, yonida ikki qavatli biznes markazi ham barpo etilayotir. Mehmonxonada tom montaji va içki devorlar qurilişi, biznes markazi yertölasida esa betonlaştirişning yakuniy bosqiçi ketmoqda.

(Davomi 2-betda).

Özbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.

ODIL SUDLOVNI TA'MINLAŞ YÖLIDA

Keça Oliy Majlis Senati Kengaşining navbatdagi majlisi bölib ötdi.

Yiğiliş

Uni Senat Raisi Tanzila Norboyeva olib bordi.

Majlisda sudyalar mustaqilligini mustahkamlaş hamda odil sudlovni ta'minlaşning institutsional mexanizmlarini rivojlantirişga qaratilgan muhim masala – Özbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining birinçi örinbosarini saylaş masalasi körib çiqildi.

Yiğilişda ta'kidlanganidek, sönggi yillarda mamlakatimizda sud hokimiyatining nufuzini oşiriş, fuqarolarning sudlarga işonçini mustahkamlaş, sudyalar faoliyatida xolislik va mustaqillikni ta'minlaş borasida izçil islohotlar amalga oşirilmoqda. Bu jarayonda Oliy sudning örni va ahamiyati alohida hisoblanadi.

Mazkur masala yuzasidan Senat Kengaşining tegişli qaroriga asosan Farrux Soyibjonoviç Abduraimov beş yil muddatga Özbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining birinçi örinbosari – sudlov hay'ati raisi lavozimiga saylandi.

Şu bilan birga, Alişer Ataxanoviç Usmanov Özbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining birinçi örinbosari lavozimidan ozod etildi.

Majlisda sözga çiqqan senatorlar sud tizimida kadrlar salohiyatini mustahkamlaş sud hokimiyatining samarali faoliyatini taşkil etişda muhim ahamiyatga egaligini ta'kidladi.

«Xalq sözi».

Oliy Majlis Qonunçilik palatasida

HAYOTIY YANGILANIŞLAR VA EZGU TAŞABBUSLAR MEZONI



Oliy Majlis Qonunçilik palatasining navbatdagi majlisi bölib ötdi. Unda yakka tartibdagi tadbirkorlarning lizing xizmatlaridan foydalaniş imkoniyatlarini kengaytiriş, intellektual mulkni huquqiy himoya qiliş tizimini takomillaştiriş, tadbirkorlik subyektlarini yanada qöllab-quvvatlaş, migratsiya sohasida davlat xizmatlari körsatiş samaradorligini oşirişga qaratilgan qonun loyihalari, şuningdek, parlament nazorati faoliyatiga doir masalalar muhokama markazida böldi.

Kun tartibidagi uşbu masalalar siyosiy partiyalar fraksiyalarida, mas'ul qömitalar, işçi guruh yiğilişlarida ekspertlar, tegişli vazirlik hamda idoralar mutaxassislari iştirokida atrofliça muhokama qilingani qayd etildi.

3

TAFAKKUR OZODLIGI – ENG ULUĞ ERK

Siyosatşunos Qudratilla Rafiqovning "Şavkat Mirziyoyev inqilobi yoxud men nima uçun Prezidentim bilan ğururlanaman?" maqolasini öqib...

Siyosiy mavzuda yozilgan maqolalarni yaxşi köraman. Fursat topişim bilan öqişga, tahlil qilişga intilaman. Buning boisi bor, albatta. Birinçidan, siyosiy mavzuga hamma qöl uravermaydi. Ikkinçidan, siyosiy fikr yuritişning özига xos mas'uliyati bor. Uçinçidan, siyosatni öta nozik tuşuniş talab etiladi.

Aks sado

Xalqimizning siyosiy madaniyatini, muşohada yuritişini, dunyoqaraşini şakllantiriş muammosi doimiy mavjud bölgan. Buning ham özига yaraşa sabablari bor, albatta.

Qudratilla Rafiqovning mazkur maqolasi va bundan oldin e'lon qilingan fikr-mulohazalarida aynan mana şu böşliqni töldirişga harakat qilinganini alohida ta'kidlaşni istayman.

Tahliliy-tanqidiy, siyosiy-analitik maqolalarga ehtiyoj va talab yuqoriligini hisobga oladigan bölsak, muallifning bu boradagi sa'y-harakatlarini yuqori baholaş kerak.

Kim nima deyişidan qat'i nazar, men yangi tariximizni 2016-yildan boşlaş tarafdoriman. Bu borada hatto tarixçilar bilan bahslaşişga ham tayyorman. Töğri, 2016-yilgaça ham buyuk tariximiz bölgan. Bundan köz yummaymiz. Men "yangi tarix" deganda, qariyb bir asrlik tafakkur tanazzuliga barham berilganini nazarda tutyapman. Biz bunga hatto mustaqillikning dastlabki 25 yilida ham erişa olmagan edik.

Tafakkur tanazzuli nima? Tafakkur söziga özbek tilining izohli luğatida şunday ta'rif beriladi: fikrlaş, öylaş, muşohada qiliş.

Xalqimiz aynan fikr aytişdan, öylaşdan, muşohada qilişdan mahrum etilgan edi. Uluğlardan biri aytganidek, qullikning eng yomon tomoni şundaki, qul asta-sekin qölidagi kişanga ham mehr qöya boşlaydi. Biz ham, öz navbatida, fikr aytmaslikka, öylamaslikka, mulohaza yuritmaslikka, muxtasar aytganda, fikr qaşşoqligi sindromiga könikib qolgandik. Qörquv qon-qonimizga singib ketgandi. Açinarlisi va alamlisi şundaki, bu vaziyat mustaqil mamlakatda hukm surardi.

Nazarimda, Prezidentimiz Şavkat Mirziyoyevning millatga bergan eng uluğ erki – bu tafakkur ozodligi. Moddiyatni inkor qilmagan holda aytiş kerakki, millat ma'naviyatidagi mazkur evriliş, maqola muallifi aytganidek, sözsiz inqilobdir.

Bugun butun dunyoda tafakkur inqilobi yuz bermoqda. Demak, tutqun va tuşovlangan tafakkur millat tanazzulining boşlanişidir.

Davlatimiz rahbari aynan millat tafakkuridagi tutqunlikni parçalab, tuşov va tizginlarni tarix qa'riga uloqtirib taşladi.

Tafakkursiz taraqqiyot bölmaydi. Mabodo bölsa ham, u sun'iy, vaqtinçalik va mörtdir. Özbekiston keyingi ön yilda aynan tafakkurga tayangan, tafakkurga asoslangan taraqqiyot yölini bosib ötdi. Bu tadrijiy taraqqiyotdir.

Biz 25 yil davomida "Yoşlarni heç kimga berib qöymaymiz", "Ongini yot ğoyalardan himoya qilamiz", deb tarğibot olib bordik. Lekin afsuski, quruq şiorbozlik bilan heç narsaga erişib bölmasligini hayotning özi körsatdi.

Prezidentimiz Şavkat Mirziyoyev qayerga bormasin, qanday mavzuga bağişlangan yiğiliş ötkazmasin, diqqat markazida doim yoşlar masalasi turadi. Muloqotlarda asosiy e'tibor ham yoşlarga qaratiladi. Prezidentimiz imkon darajasida ularni eşitişga, qöllab-quvvatlaşga harakat qiladi. Bu ezguliklar juda tez öz mevasini berganini kördik.

Javohir Sindorov, Nodirbek Abdusattorov, Abduqodir Husanov kabi butun bir yoşlar avlodi, armiyasi şakllandi. Bu yoşlar bugun dunyoga Yangi Özbekistonning kuç va qudratini namoyiş etmoqda.

2

«Mirziyoyev doktrinasi:

GLOBAL BEQARORLIK DAVRIDAGI IMKONIYATLAR DIPLOMATIYASI»

Anqara şahrida Yangi Özbekistonning taraqqiyot modeli va mamlakatimizning taşqi siyosat strategiyasiga bağişlangan "Mirziyoyev doktrinasi: global beqarorlik davridagi imkoniyatlar diplomatiyasi" nomli kitobning turk tilidagi naşri taqdimoti bölib ötdi.

Taqdimot

Tadbir Turkiya Prezidenti Administratsiyasining Kommunikatsiyalar boşqarmasi, Turkiya hamkorlik va muvofiqlaştiriş agentligi (TIKA) hamda Özbekiston elçixonasi hamkorligida taşkil etildi. Unda taniqli olimlar, siyosatşunoslar, ekspertlar, rasmiy doiralar, diplomatik korpus hamda keng jamoatçilik vakillari qatnaşdi.

Kitob hammuallifi, Özbekiston taşqi işlar vazirining maslahatçisi Şuhratjon Yigitaliyev turk tilida interaktiv ma'ruza qilib, asarning asosiy ğoyasi va ilmiy-amaliy ahamiyati haqida sözlab berdi, iştirokçilarning savollariga javob qaytardi.

Taqdimotda Yangi Özbekistondagi islohotlar, davlat boşqaruvi tizimining yangilanişi, iqtisodiy oçiqlik siyosati va taşqi siyosatning faollaşuvi xalqaro ekspertlar tomonidan katta qiziqiş uyğotayotgani ta'kidlandi. Öz navbatida, şu paytgaça mazkur jarayonlarni yagona siyosiy-falsafiy yondaşuv asosida tizimlaştiradigan hamda ularning strategik mazmun-mohiyatini oçib beradigan fundamental tadqiqotlar yetişmayotgani qayd etildi. "Mirziyoyev doktrinasi: global beqarorlik davridagi imkoniyatlar diplomatiyasi" kitobi aynan şu böşliqni töldirişga qaratilgan ilk fundamental asarlardan biri sifatida e'tirof qilindi.

Sözga çiqqanlar sönggi ön yillikka yangiça nigoh bilan qaraş, özgarişlarning mafkuraviy asoslari va uzoq muddatli istiqbollarini anglaş hamda Prezident Şavkat Mirziyoyev tomonidan şakllantirilgan taraqqiyot modeli falsafasini mazmunan tuşunib yetiş imkoniyati taqdim etilganini kitobning asosiy qadr-qimmati sifatida keltirdi. Asarda islohotlar strategik tafakkur va davlat boşqaruvi falsafasiga tayangan yaxlit jarayon sifatida tahlil qilingan. Şuningdek, inson manfaatlarining ustuvorligi, oçiqlik va pragmatizm, mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlaş, özaro işonç va manfaatli şeriklik kabi tamoyillarga alohida e'tibor qaratilgan.

2

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq sözi
2026-yil 4-noyabr

KÖHNA BUXORONING YANGI TARIXI: STRATEGIK LOYIHALAR, BUNYODKORLIK RUHI VA JADAL ÖZGARIŞLAR

(Davomi. Boşlanişi 1-betda).

Davlatimiz rahbari obyektlardagi işlar bilan tanişib, ular Buxoroda xalqaro tadbirlarni yuqori saviyada ötkaziş, turizm xizmatlari kölamini kengaytiriş uçun muhimligini, bu esa aholi daromadlarini oşiriş va hudud iqtisodiyotini yanada rivojlantirişga xizmat qilişini ta'kidladi.

Quriliş işlarini belgilangan muddatda, sifat talablariga qat'iy rioya etgan holda yakunlaş böyiça topşiriqlar berildi.

Keyin Prezident Şavkat Mirziyoyev Buxoro şahridagi Qöşmadrasa ansambliga taşrif buyurdi.

Abdullaxon madrasasi XVI asr özbek me'morçiligining nodir namunalaridan biri, 1588 – 1590-yillarda Buxoro xonligining Şayboniylar sulolasidan çiqqan hukmdori, buyuk sarkarda va davlat arboblaridan biri Abdullaxon II tomonidan bunyod etilgan.

Madrasa rejasi va içki tuzilişi murakkab muhandislik yeçimi bilan an'anaviy Buxoro madrasalaridan farq qiladi. Majmuaning boş kiriş qismi janubga qaragan bölib, u kök rangli koşin va sirli naqşlardan terilgan geometrik mozaika bilan bezatilgan.

XVI asrda madrasa Movarounnahrning eng yirik va nufuzli oliy ta'lim va ilm-fan markazlaridan biri bölgan. Bu yerda ilmi toliblarga diniy va dunyoviy fanlardan dars berilgan. Xususan, madrasada Qur'on, tafsir, hadis, fiqh, aqoid bilan bir qatorda arab tili va adabiyoti, mantiq, falsafa, matematika, geometriya, tibbiyot fanlari çuqur öqitilgan.

Ansamblning janubiy qismida 1566-1567-yillarda Abdullaxon II tomonidan öz onasi şarafiga bunyod etilgan Modarixon madrasasi joylaşgan. Madrasalar bir-biriga qarama-qarşi, bir öq çiziğida qurilgan.

Qöşmadrasa ansambli 2023-2024-yillarda qiymati 6 milliard sömlik loyiha doirasida qisman restavratsiya qilingan. Bugungi kunda mazkur ansamblga 1 million sayyoh taşrif buyurmoqda.

Davlatimiz rahbariga Qöşmadrasa ansamblini restavratsiya qiliş rejasi taqdimot qilindi.

Prezidentimiz sayyohlar uçun yanada qulay şaroitlar yaratiş yuzasidan körsatmalar berdi.

Söng davlatimiz rahbari Buxoro şahrida qurilayotgan yangi turizm markazida olib borilayotgan bunyodkorlik işlari bilan tanişdi.

Qadimiy Buxoroning tarixiy obidalari, hunarmandçilik va gastronomiya an'analari sayyohlar uçun katta qiziqiş uyğotadi. Yangi markazda bu boy merosni zamonaviy xizmatlar bilan uyğunlaştiriş, şaharda yirik xalqaro madaniy va işbilarmonlik tadbirlarini ötkaziş uçun şaroit yaratiş közda tutilgan.

Prezidentimiz joriy yil yanvar oyida Buxoro şahrining boş rejasi muhokamasida madaniyat loyihalarini turizmni rivojlantiriş bilan boğliq holda amalga oşiriş, ularning iqtisodiy barqarorligi va sifatli boşqaruvini ta'minlaş zarurligini ta'kidlagan edi. Mazkur markaz ham mehmonlar uçun turli xizmatlarni bir hududda jamlaşga qaratilgan.

Majmua 50 gektar maydonda barpo etilmoqda. Loyihaga jami 105 million dollar investitsiya yönaltirilişi rejalaştirilgan.

Loyihaga köra, hududda qabullar uyi, körgazmalar zali, muzey, ikkita zamonaviy mehmonxona, 80 ta oilaviy mehmon uyi, 2 ming örinli amfiteatr, 70 dan ortiq savdo va xizmat körsatiş şoxobçalari barpo etiladi. Şuningdek, sayilgohlar, hunarmandçilik markazlari va sun'iy köl taşkil qilinadi. Inşootlar qiyofasida Buxoro me'morçiligiga xos an'analarni zamonaviy yeçimlar bilan uyğunlaştiriş nazarda tutilgan.

Hozir markazning 10 gektar maydonida muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini quriş işlari olib borilmoqda. Mazkur jarayonga 50 ga yaqin maxsus texnikalar jalb qilingan.

Majmua töliq işga tuşgaç, 2 mingta iş örni yaratilişi, Buxoroga qöşimça 2 milliondan ortiq sayyohlar jalb etilişi kutilmoqda. Hisob-kitoblarga köra, mahalliy byudjetga yillik tuşum 288 milliard sömni taşkil etişi mumkin.

Prezidentimiz loyihaning ahamiyati bunyod etilayotgan binolar bilangina ölçanmasligi, asrlar davomida ilm-ma'rifat, savdo va hunarmandçilik markazi bölib kelgan Buxoroning şuhratiga munosib muhit yaratiş, uning boy merosini dunyoga yanada keng tanitiş muhimligini qayd etdi. Yangi markazga kelgan mehmon şarif şaharning tarixiy ruhini his qilişi, bugungi taraqqiyotini körişi, buxoroliklar esa turizm rivojidan iş örni va daromad körişi lozim. Prezidentimiz loyihani ana şu maqsadlardan kelib çiqib amalga oşiriş vazifasini qöydi.

Prezident Şavkat Mirziyoyev Buxoro viloyatiga taşrifi çoğida Vyetnamning "ROX Group" kompaniyasi tomonidan mamlakatimizda amalga oşirilişi rejalaştirilgan loyihalar taqdimoti bilan tanişdi.

Kompaniya vakillari Buxoroda ikkita, Toşkent şahrining Uçtepa tumani va Samarqandda bittadan – jami törtta şaharsozlik loyihasi haqida axborot berdi. Ularning umumiy maydoni 285 gektarni, investitsiya hajmi 4,5 milliard dollarni taşkil etadi. Loyihalar 115 ming nafar aholi uçun möljallangan.

Buxoro tumanida 65 gektar, Buxoro şahrida esa 25 gektar maydonda yangi turarjoy massivlari qurilişi boşlandi. Ularda 30 ming nafar aholiga möljallangan köp qavatli uy-joylar, mehmonxonalar, biznes markazlari, savdo, xizmat körsatiş va köngiloçar obyektlar barpo etiş közda tutilgan.

Uçtepa tumanidagi loyiha zamonaviy şahar muhitini yaratişga, Samarqanddagi taşabbus esa mavjud sayyohlik majmuasi atrofidagi infratuzilmani kengaytirişga qaratilgan. Vyetnamlik investor Jizzax viloyatining Zomin tumanida sanoat zonasi taşkil qiliş taşabbusini ham ilgari surdi.

Davlatimiz rahbari taqdim etilgan konsepsiyalarni ma'qullab, loyihalarda ilğor şaharsozlik yeçimlarini qöllaş zarurligini körsatib ötdi. Mutasaddilarga loyihalar uçun zarur infratuzilma va amalga oşiriş mexanizmlarini kompaniya bilan birgalikda puxta işlab çiqiş yuzasidan körsatmalar berildi.

Prezident Şavkat Mirziyoyev Buxoro viloyatiga taşrifi doirasida yangi obyektlarni işga tuşiriş va istiqbolli loyihalar qurilişiga start beriş marosimida iştirok etdi.

Buxoro asrlar davomida ilm-fan, madaniyat va hunarmandçilik markazi bölib kelgan. Bugun ajdodlarimizdan meros bunyodkorlik an'analari zamonaviy işlab çiqariş, tadbirkorlik va turizm rivojida davom etmoqda.

Davlatimiz rahbari sönggi töqqiz yilda viloyatga 9,5 milliard dollarlik xorijiy investitsiya jalb qilinib, 6 mingdan ortiq yangi işlab çiqariş quvvatlari va 120 mingta doimiy iş örni yaratilganini qayd etdi. Bu natijalar odamlarning bandligi va daromadi oşişi, mahalliy korxonalarning yangi bozorlarga çiqişida öz ifodasini topmoqda.

– Bugungi Buxoro buyuk tarixdan yangi taraqqiyot va muhtaşam loyihalar davriga şiddat bilan yuzlanmoqda, – dedi Prezidentimiz.

Neft-kimyo, töqimaçilik, quriliş materiallari, maşinasozlik, energetika, toğ-kon sanoati, farmatsevtika, raqamli texnologiyalar, logistika, qişloq xöjaligi, oziq-ovqat, uy-joy qurilişi, infratuzilma, xizmat körsatiş va turizm sohalarida umumiy qiymati 7,8 milliard dollar bölgan 145 ta loyihadan iborat dastur şakllantirilgan. Şundan 654 million dollarlik 55 ta loyiha işga tuşirilmoqda, qiymati 7,1 milliard dollar bölgan yana 90 tasining qurilişi boşlanmoqda.

Loyihalarda AQŞ, Kanada, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur, Xitoy, Vyetnam, Turkiya, Birlaşgan Arab Amirliklari, Saudiya Arabistoni, Rossiya va Hindiston investorlari, Osiyo taraqqiyot banki, Osiyo infratuzilma investitsiyalari banki hamda mahalliy tadbirkorlar iştirok etmoqda.

Ularning amalga oşirilişi natijasida 14 mingdan ortiq iş örinlari yaratilişi, yiliga 22 trillion sömlik mahsulot işlab çiqarilişi va 510 million dollarlik eksport imkoniyati paydo bölişi kutilayotir.

– Maqsadimiz bitta – import örnini bosadigan va taşqi bozorlarda talab yuqori bölgan mahsulotlar işlab çiqariş, – dedi davlatimiz rahbari.

Viloyatda energetika sohasida ham yirik quvvatlar barpo etilmoqda. Sönggi yillarda "yaşil" energetikaga 2 milliard dollar jalb qilinib, 1 ming megavatt şamol va 750 megavatt quyoş elektr stansiyalari, şuningdek, 63 megavattli energiya saqlaş tizimlari işga tuşirildi. 601 kilometr magistral elektr tarmoği tortildi.

Ğijduvonda "ACWA" kompaniyasi bilan 300 megavattli "Boş-2" şamol elektr stansiyasi, Jondorda "Toyota Corporation" va Peşkuda "Sinoma" kompaniyalari iştirokida umumiy quvvati 1 ming megavatt bölgan şamol elektr stansiyalarining qurilişi davom etmoqda. Xitoylik hamkorlar bilan Kogon tumanida maişiy çiqindilardan elektr energiyasi olişga qaratilgan 165 million dollarlik loyihani amalga oşiriş, Germaniyaning "Leman" kompaniyasi bilan esa "Amu-Buxoro" kanali nasos stansiyalarining barqaror işlaşini ta'minlaş böyiça 150 million dollarlik loyihani yölga qöyiş rejalaştirilgan.

Viloyatning paxtaçilikdagi tajribasiga tayangan holda zamonaviy töqimaçilik klasterlari rivojlantirilmoqda. Buxoro şahrida "Kurt Baver" brendi ostida yiliga 62 ming tonna mahsulot işlab çiqaradigan töqimaçilik kompleksi barpo etiladi. Romitanda xitoylik investorlar iştirokida qiymati 400 million dollar bölgan paxta-töqimaçilik klasteri taşkil qilinmoqda. Uşbu loyihalar doirasida 9 ming gektar yerni özlaştiriş taşabbusi ham ilgari surilgan. Natijada yuqori qöşilgan qiymatli mahsulotlar uluşini 65 foizga yetkaziş va qöşimça 100 million dollarlik eksport imkoniyatini yaratiş közda tutilgan.

Turizm Buxoro taraqqiyotining yana bir muhim yönalişidir.

– Qadimiy obidalar, madaniy meros va zamonaviy infratuzilma uyğunligi Buxoroni sayyohlarning sevimli maskaniga aylantiryapti. Bugungi tadbirimiz ötayotgan, yangidan barpo etilayotgan Buxoro turizm markazi ana şu ezgu maqsadga xizmat qiladi, – dedi davlatimiz rahbari.

Markazda "Boqiy Buxoro" madaniy-etnografik parki, körgazmalar zali, zamonaviy mehmonxonalar, madaniy va köngiloçar maskanlar barpo etiladi. Şuningdek, Buxoro şahrida "Indigo", "Holiday Inn" va "Hilton" xalqaro brendlari ostida mehmonxonalarni quriş rejalaştirilgan.

– Umuman, Buxoroda qiymati 3 milliard dollarlik 19 ta yirik loyihani boşlaymiz. Agar bu işlarni tizimli taşkil qilsak, birgina Buxoroning özida bemalol 5 milliard dollarlik turizm xizmatlari eksportini ta'minlaymiz, – dedi Prezidentimiz.

Kelgusi beş yilda Buxoro viloyati aholisini töliq içimlik suvi bilan, yirik şaharlar va tuman markazlarini esa kanalizatsiya tarmoği bilan ta'minlaş maqsad qilingan. Xalqaro hamkorlar bilan umumiy qiymati 633 million dollar bölgan ikkita yirik loyiha boşlangan. Ularning hisobiga 2 million nafar aholining suv ta'minoti yaxşilanadi, 781 ming nafar aholi ilk bor içimlik suviga ega böladi.

Şuningdek, viloyatning tranzit salohiyatini uç karra oşirişga qaratilgan, qiymati 565 million dollar bölgan yettita yöl loyihasi amalga oşiriladi.

Prezidentimiz ramziy tugmani bosib, yangi obyektlarni işga tuşirdi va istiqbolli loyihalar qurilişiga start berdi. Xorijlik investorlar bilan muloqot bölib ötdi.

Prezident Şavkat Mirziyoyev Buxoro şahrida ötkazilişi rejalaştirilgan yirik xalqaro tadbirlarga tayyorgarlik masalalari böyiça yiğiliş ötkazdi.

Davlatimiz rahbari bölajak tadbirlar Buxoroning boy tarixiy merosi va bugungi salohiyatini namoyon etiş bilan birga, viloyatni rivojlantirişga xizmat qilişi kerakligini ta'kidladi. Buning uçun tayyorgarlikni tadbirlar ötadigan joylar bilan çeklamay, transport, xizmat körsatiş, xavfsizlik va şahar infratuzilmasini yaxlit holda rivojlantiriş zarur.

Yiğilişda oliy darajadagi uçraşuvlar va yirik xalqaro tadbirlarni yuqori saviyada taşkil etiş masalalari körib çiqildi. Har bir vazirlik va idoraga xorijiy hamkorlar bilan öz yönalişi böyiça mazmunli muloqotga tayyorgarlik köriş, mamlakatimizdagi islohotlarning amaliy natijalarini körsatiş va yangi qöşma taşabbuslar işlab çiqiş vazifasi qöyildi.

Jamoat xavfsizligini ta'minlaşga alohida e'tibor qaratildi. Buxoroda zamonaviy vaziyat markazlari faoliyatini yölga qöyiş, jamoat joylari va sayyohlik obyektlaridagi holatni raqamli texnologiyalar yordamida kuzatiş, yöl harakatini boşqariş hamda kiberjinoyatçilikka qarşi kuraşiş böyiça rejalar muhokama qilindi. Mahallalarda huquqbuzarliklarning oldini olişda profilaktika inspektorlari va "mahalla yettiligi" hamkorligini kuçaytiriş zarurligi qayd etildi.

Prezidentimiz Buxoroga kelgan mehmon avvalo aeroport, vokzal va yöllar holatiga e'tibor qaratişini ta'kidladi. Şu bois qiymati 300 million dollar bölgan yangi xalqaro aeroport qurilişi, uni şahar bilan boğlovçi 23,5 kilometrlik yölni barpo etiş va yöl böylarini kökalamzorlaştiriş işlari körib çiqildi. Temir yöl vokzallari atrofini obodonlaştiriş, avtoturargohlar, yoritiş, servis va jamoat transporti qatnovini yaxşilaş böyiça topşiriqlar berildi. Şahar va tumanlarni vokzallar bilan boğlaş uçun qöşimça 120 ta avtobus jalb etiş belgilandi.

Buxoroning iqlim şaroitini hisobga olgan holda yaşil hududlarni kengaytiriş, daraxt va butalar ekiş bilan birga, ularning parvarişi uçun suğoriş hamda drenaj tizimlarini taşkil qiliş masalalariga ham e'tibor qaratildi.

Xalqaro tadbirlardan investitsiya va iqtisodiy hamkorlikni kengaytiriş uçun foydalaniş zarurligi ta'kidlandi. Sanoat kooperatsiyasi, yuqori qöşilgan qiymatli mahsulotlar işlab çiqariş, transport-logistika va eksport sohalarida xorijiy şeriklar bilan amaliy kelişuvlarga erişiş böyiça takliflar körib çiqildi. Şuningdek, viloyatda qayta tiklanuvçi energetika loyihalari, elektr energiyasini uzatiş va saqlaş infratuzilmasini rivojlantiriş işlari muhokama qilindi.

Buxoroning tarixiy-madaniy merosi va sayyohlik imkoniyatlarini kengroq namoyon etiş bilan birga, mehmonlarni hududdagi zamonaviy korxonalar, qişloq xöjaligi, hunarmandçilik va xizmat körsatiş sohalaridagi işlar bilan bevosita taniştiriş muhimligi qayd etildi. Aholi bandligini ta'minlaş, daromadlarni oşiriş, soğliqni saqlaş va madaniyat sohalaridagi özgarişlarni ham amalda körsatiş vazifasi qöyildi.

Davlatimiz rahbari tayyorgarlik jarayonida quriladigan har bir obyekt va joriy etiladigan har bir tizim tadbirlardan keyin ham buxoroliklarga xizmat qilişi lozimligini ta'kidladi. Mutasaddilarga hududlarga çiqib, işlarning borişini şaxsan örganiş, muammolarni joyida hal etiş va barça vazifalar ijrosini qat'iy muvofiqlaştiriş böyiça körsatmalar berildi.

Prezident Şavkat Mirziyoyev Buxoro tumanidagi "Tekhnoçem" korxonasida bölib, neft-kimyo klasterining faoliyati va istiqbolli rejalari bilan tanişdi.

Tabiiy resurslarni çuqur qayta işlab, yuqori qöşilgan qiymatli mahsulotlar işlab çiqariş mamlakatimiz sanoat siyosatining muhim yönalişlaridan biridir. Buxoro tumanidagi klaster neft va gaz kondensati, nafta, metanol hamda piroliz distillyatini qayta işlaşga ixtisoslaştirilgan. Uşbu yönalişdagi majmua respublikada yagona hisoblanadi.

Korxona 69 gektar maydonni egallagan. Bu yerda 500 nafarga yaqin kişilar mehnat qilmoqda. Majmuada yiliga 100 ming tonna piroliz distillyati, şuningdek, 160 ming tonna nafta va gaz kondensatini qayta işlaş quvvati mavjud. Bu yoqilği bilan bir qatorda kimyo sanoati uçun zarur mahsulotlar oliş imkonini beradi. Jumladan, oktanbuster benzin sifatini oşirişda, eritkiçlar esa böyoq, lok, yelim va maişiy kimyo mahsulotlari işlab çiqarişda qöllanadi.

Prezidentimizga klasterni kengaytirişning navbatdagi bosqiçi töğrisida axborot berildi.

2028-yil yakuniga qadar 292 million dollarlik investitsiya loyihasini amalga oşiriş rejalaştirilgan. U gaz kondensati va naftani qayta işlaş, aromatik uglevodorodlar hamda eritkiçlar işlab çiqarişni yölga qöyişni nazarda tutadi. Natijada yillik qayta işlaş quvvati qöşimça 400 ming tonnaga oşişi va 700 ta yangi iş örni yaratilişi kutilmoqda.

Yangi quvvatlar işga tuşişi bilan texnologlar, muhandislar, kimyogarlar va laboratoriya mutaxassislariga ehtiyoj ham ortadi. Davlatimiz rahbari şu munosabat bilan hududda kasbiy ta'lim va işlab çiqariş örtasidagi hamkorlikni mustahkamlaş zarurligiga e'tibor qaratdi.

Korxona Qozoğiston, Qirğiziston, Tojikiston, Turkmaniston, Afğoniston va Yevropa Ittifoqi mamlakatlariga yiliga 180 ming tonnaga yaqin neft-kimyo mahsulotlari, avtobenzin va dizel yoqilğisini eksport qilişni rejalaştirilayotir. Şuningdek, 2028 – 2030-yillarda 150 ming tonna suyultirilgan gazni qayta işlaş loyihasi yuzasidan xorijiy hamkorlar bilan muzokaralar olib borilmoqda.

Prezidentimiz klasterning eksport salohiyatini oşiriş va yangi quvvatlar uçun malakali kadrlar tayyorlaş böyiça tavsiyalar berdi.

Prezident Şavkat Mirziyoyev Qorovulbozor tumanidagi Buxoro neftni qayta işlaş zavodiga taşrif buyurib, korxonani modernizatsiya qiliş loyihasi bilan tanişdi.

Zavod mamlakatimizda yonilği mahsulotlari işlab çiqaruvçi yirik korxonalardan biri. Bu yerda 3 200 nafardan ziyod mutaxassislar mehnat qilmoqda. Joriy yilning töqqiz oyida 1,36 million tonna, qiymati 12,1 trillion söm bölgan neft mahsulotlari işlab çiqarildi. Mahsulot hamda xizmatlar eksporti 99,5 million dollarni taşkil etdi. Yil yakunigaça bu körsatkiçni 116 million dollarga yetkaziş rejalaştirilgan.

Davlatimiz rahbariga taqdim qilingan modernizatsiya loyihasi xomaşyoni qayta işlaş hajmini oşiriş bilan birga yuqori oktanli benzin işlab çiqariş imkoniyatlarini kengaytirişga qaratilgan. Loyihaning umumiy qiymati 328 million dollarni taşkil etadi.

Uning doirasida naftani gidrotozalaş va izomerizatsiya qiliş qurilmalari örnatiladi. Gidrotozalaş jarayonida xomaşyo tarkibidagi oltingugurt va boşqa aralaşmalar kamaytiriladi. Izomerizatsiya esa yengil fraksiyalardan olinadigan benzinning oktan sonini oşiriş imkonini beradi. Mazkur jarayonlar "Yevro-5" talablariga javob beradigan AI-92 va AI-95 rusumli benzin işlab çiqarişni köpaytiriş uçun muhimdir.

Loyihada xomaşyoni fraksiyalarga ajratiş va oğir qoldiqlarni çuqur qayta işlaşni takomillaştiriş ham nazarda tutilgan. Natijada zavodning yillik qayta işlaş quvvatiga yana 2,5 million tonna qöşilib, umumiy quvvat 5 million tonnaga yetadi. Qayta işlaş hajmi va tayyor mahsulot işlab çiqarişning ortişi içki bozor ta'minotini mustahkamlaş, eksportni köpaytiriş imkonini yaratadi.

Prezidentimiz modernizatsiya işlarini belgilangan muddatlarda va yuqori sifat bilan bajariş, yangi qurilmalarni mavjud işlab çiqariş jarayonlariga uyğun holda joriy etiş hamda korxonaning barqaror faoliyatini ta'minlaş yuzasidan körsatmalar berdi hamda loyihada qatnaşayotgan xorijiy kompaniyalar vakillari bilan muloqot qildi.

Ziyodulla JONIBEKOV,
Abdulaziz RUSTAMOV,
Zarifjon KOMILOV,
Dilşod HAKIMOV,
ÖzA maxsus muxbirlari.

TAFAKKUR OZODLIGI – ENG ULUĞ ERK

1 Nafaqat sport, balki ilm-fan sohasida ham, adabiyot va san'atda ham özbek yoşlari jahon arenalariga, sahnalarga çiqmoqda.

Navqiron avlodni bunday yuksak marralarga kim çorlamoqda? Kim ularni rağbatlantirmoqda? Kim ularga öğlim, qizim deb murojaat qilayotir? Albatta, Prezident Şavkat Mirziyoyev.

Diyora Keldiyorova Olimpiadaning oltin medalini qölga kiritganda, birinçi bölib Prezidentimiz Şavkat Mirziyoyev tabrikladi. Yurt otasi yarim tun bölişiga qaramasdan Diyoraning final uçraşuvini körib, unga qöngiroq qildi. Bunday baxtdan Şamsiddin Vohidov va boşqa köplab yoşlarimiz ham bahramand bölgan edi.

Yoşlarni quruq gap bilan ilhomlantirib bölmasligini öz tajribamizda sinab kördik. Prezidentimiz nafaqat ğalabaga erişgan yigit-qizlarni, balki ularning ustoz-murabbiylarini, ota-onalarini ham köklarga kötardi. Qaçon şunday bölgan? Bunday ğamxörlik va rağbat tafakkuri uyğoq yoşlarning safini tobora töldirmoqda. Ertamiz egalarida vatanparvarlik tuyğusini uyğotmoqda.

Prezidentimiz hatto xorijiy safarlarda ham, vaqti qançalik tiğiz bölişiga qaramasdan özbekistonliklar va yoşlar vakillari bilan uçraşib, ular bilan döstona suhbatlaşmoqda. Takliflarini öşa joyning özida hal etiş borasida topşiriqlar bermoqda. Va albatta, ularni Vatanimizga qaytişga çaqirmoqda. Prezidentimizning bu usuli köpçilikka ibrat, örnak bölmoqda.

Maqola muallifi Qudratilla Rafiqov "Men nima uçun Prezidentim bilan ğururlanaman?" degan savolni örtaga qöygan. Bu faxr, bu minnatdorlik, bu rozilik zamirida Şavkat Mirziyoyevning maşaqqatli mehnati, buyuk mehri, inson qadrini uluğlaşdek uluğ falsafasi mujassamlaşgan.

46-Butunjahon şaxmat olimpiadasi ğolibi, "Fidokorona xizmatlari uçun" ordeni sohibi Javohir Sindorov aytganidek: *"Men Prezidentim bilan faxrlanaman. Özbekiston farzandi ekanligimdan ğururlanaman. 2026-yil 12-dekabr. Biz yangi tarix yaratamiz. Şveysariyaning Jeneva şahrida bölib ötadigan Jahon şaxmat toji uçun kuraşda ğalaba qozonib, Jahon şaxmat tojini Özbekistonga olib kelaman. Prezidentimga Jahon şaxmat tojini köp yillar davomida yurtimizda saqlaşga va'da beraman..."*

Özbekistonda davlatimiz rahbari asos solgan tafakkur inqilobiga yana köplab misollar keltirsa böladi.

Prezidentimiz Şavkat Mirziyoyev davlat boşqaruviga kelişi bilan muqobili yöq, xalq bilan muloqot tizimini yaratdi. Buning boisi bor edi, albatta. Xalqning qalbida, yuragida çökib yotgan armonlari, iztiroblari va muammolari juda köp edi. Odamlar yolğonlardan, soxta statistikadan töyib ketgandi. Mustaqillikka işonçi sönayotgandi. Xalq bilan boşlangan



fikrlaşiş, odamlarni eşitiş, dardini tinglaş ularni rozi qilişdek buyuk maqsadga aylandi.

Bugun biz örganib qolgan, hatto talab etayotgan masalalar haqida bundan ön yil oldin gapiriş u yoqda tursin, öylaş ham taqiqlangan edi.

Inson tafakkuri aslida ozodlikning boşlanişidir. Ozodlik aynan tafakkur erkinligidan boşlanadi. Ming afsuski, biz hatto istiqlol yillarida ham butun bir avlodlarga tafakkur erkinligini bermadik. Xalq va uning tafakkuri örtasida şafqatsizlarça temir parda tortildi.

Fransiyaning Lion şahrida XVIII asrning oxirida birinçi marta teatrda yonğinga qarşi çora sifatida teatr sahnasi bilan tomoşabinlar örtasida temir parda tortilgan. Birinçi jahon uruşi davrida "temir parda" iborasi xalqlar va mamlakatlar örtasida paydo bölgan mafkuraviy va siyosiy yopiqlikka nisbatan işlatila boşlangan. Bu iboraning maşhur bölişi va xalqaro munosabatlarni belgilaşda qöllanilişiga Angliya Boş vaziri Uinston Çerçill sababçi bölgan.

Uinston Çerçill 1946-yil 5-mart kuni Fulton şahrida sözlagan nutqida şunday degan: "Boltiq dengizidagiŞtettindan Adriatika dengizidagi Triyestgaça bölgan mintaqa böylab temir parda tuşirildi". U bu gapi bilan sobiq ittifoqning Şarqiy Yevropa mamlakatlarida sotsialistik tuzumni zöravonlik bilan örnatib, uşbu mintaqa xalqlarini Ğarb dunyosidan uzib qöyganiga işora qilgan.

Mamlakatimizda "temir parda" tortilmagan biror-bir soha yöq edi. Bu "temir parda"larni olib taşlaş uçun aynan inqilob zarur edi.

Şavkat Mirziyoyev ön yil davomida nafaqat "temir parda"ga, balki uni xalq bilan davlat örtasida tortganlarga ham qarşi ayovsiz kuraş olib bordi.

Mustaqillikkaça va uning dastlabki 25 yilida "inqilob" sözi qaysi ma'noda va nimaga nisbatan işlatilgan bölmasin, bugun bu sözning ma'no-mazmuni tubdan özgardi, yangilandi. Millat hamda mamlakat uçun aynan Prezidentimiz Şavkat Mirziyoyev tomonidan amalga oşirilgan tafakkur inqilobi qadrli va azizdir.

Rustam XOLMURODOV,
Samarqand davlat universiteti rektori,
Özbekiston Respublikasi fan arbobi,
Oliy Majlis Senati a'zosi.

«Mirziyoyev doktrinasi:

GLOBAL BEQARORLIK DAVRIDAGI IMKONIYATLAR DIPLOMATIYASI»



1 Kitobda taşqi siyosat masalalariga ham alohida örin berilgan. Özbekistonning oçiq, muvozanatli va pragmatik siyosati xalqaro nufuzni mustahkamlaş hamda milliy manfaatlarni ilgari suriş omili sifatida baholangan. Ustuvor yönalişlar sifatida Markaziy Osiyoda yaxşi qöşniçilik munosabatlarini mustahkamlaş, mintaqaviy muloqot, savdo-iqtisodiy aloqalar va transport-kommunikatsiya boğliqligini rivojlantiriş masalalari sanab ötilgan.

Tadbir qatnaşçilari mazkur kitob nafaqat Özbekistonning taraqqiyot yölini tadqiq etuvçilar, balki xalqaro munosabatlar, diplomatiya, geopolitika va mintaqaviy integratsiya sohasi mutaxassislari uçun ham foydali manba bölib xizmat qilişiga işonç bildirdi. Turkiyalik ekspertlar kitobdagi yondaşuvlarga katta qiziqiş bildirib, butun turkiy dunyo miqyosida hamkorlik istiqbollarini baholaş uçun Özbekistondagi jarayonlarni çuqur anglaş muhimligini alohida ta'kidladi.

«Dunyo» AA.
Anqara

Hukumat qaroriga köra, 2026/2027 öquv yilidan boşlab texnikumlarning örta va örta maxsus kasbiy ta'lim dasturlarida öqiyotganlarga "Work and Travel" dasturi doirasida xorijiy davlatlarda işlaş va sayohat qiliş imkoniyati yaratiladi.

QADIMIY MEROS VA ZAMONAVIY INFRATUZILMA UYĞUNLIGI

Hududlarni kompleks rivojlantiriş, ularning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalaniş, tarixiy-madaniy merosni asrab-avaylaş va xalqaro miqyosda tarğib qiliş davlat siyosatining ustuvor yönalişlaridan biri. Buxoro viloyatida amalga oşirilayotgan islohotlar, yangi infratuzilma va turizm loyihalari bunda alohida ahamiyat kasb etadi.

Munosabat

Buxoro – nafaqat qadimiy obidalar, balki ilm-fan, ma'rifat, savdo-sotiq, me'morçilik va hunarmandçilik rivojlangan noyob madaniy makon. Bugungi vazifa ana şu tarixiy salohiyatni zamonaviy iqtisodiy imkoniyatlar bilan uyğunlaştiriş, hududning investitsiyaviy jozibadorligi va xalqaro nufuzini oşirişdan iborat.

Prezidentimiz Şavkat Mirziyoyev Buxoro şahriga taşrifi doirasida yangi turizm markazidagi quriliş işlari bilan tanişişi hamda 2027-yilda ötkazilişi rejalaştirilgan xalqaro tadbirlarga tayyorgarlik masalalari yuzasidan yiğiliş ötkazilişi bu borada muhim ahamiyatga ega.

Bu yerda 50 gektar maydonda barpo etilayotgan yangi turizm markaziga 105 million dollar investitsiya yönaltirilişi rejalaştirilgan. Markazning töliq işga tuşirilişi natijasida 2 mingta iş örni yaratiş, 2 milliondan ortiq qöşimça sayyoh jalb etiş va mahalliy byudjetga yiliga 288 mlrd. söm tuşum ta'minlaş imkoniyati kutilmoqda.

Uşbu raqamlar ortida mahalliy aholi uçun yangi daromad manbalari, yoşlar bandligi, hunarmandlar va tadbirkorlar uçun keng imkoniyatlar mujassam. Eng muhimi, turizmdan keladigan iqtisodiy samara keng aholi qatlamiga yetib borişi zarur.



Qolaversa, 2027-yildagi xalqaro tadbirlarga tayyorgarlik transport, xizmat körsatiş, xavfsizlik va şahar infratuzilmasini kompleks rivojlantirişni taqozo etadi. Şu maqsadda qiymati 300 mln. dollar bölgan yangi xalqaro aeroport qurilişi, uni şahar bilan boğlovçi 23,5 kilometrlik yöl barpo qiliş, temir yöl vokzallari atrofini obodonlaştiriş, avtoturargohlar, yoritiş tizimi va jamoat transportini yaxşilaş vazifalari belgilangan.

Xalqaro tadbirlar Buxoroning investitsiyaviy imkoniyatlarini namoyon etiş uçun ham muhim maydon böladi. Yiğilişda sanoat kooperatsiyasi, yuqori qöşilgan qiymatli mahsulotlar işlab çiqariş, transport-logistika, eksport va qayta tiklanuvçi energetika sohalarida xorijiy hamkorlar bilan amaliy kelişuvlarga erişiş masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Buxoro dunyoga faqat tarixiy obidalari bilan emas, balki zamonaviy işlab çiqarişi, tadbirkorlik muhiti, qişloq xöjaligi, hunarmandçiligi va inson salohiyati bilan ham tanilişi lozim.

Buxoroning öziga xos iqlimi, yozdagi yuqori harorat va suv resurslaridan oqilona foydalaniş zarurati şaharsozlikda ekologik omillarni ham ustuvor vazifaga aylantiradi. Şu bois yaşil hududlarni kengaytiriş, daraxt va butalar ekiş bilan birga ularni parvarişlaş uçun suğoriş va drenaj tizimlarini taşkil etiş ham muhim.

Bu loyihalarni amalga oşirişdagi eng muhim mezon – ularning xalqaro tadbirlardan keyin ham buxoroliklar manfaatiga xizmat qilişi. Buning uçun har bir loyihaning iqtisodiy asoslanganligi, moliyaviy barqarorligi, kelgusidagi ekspluatatsiya xarajatlari va samarali boşqaruvi ta'minlanişi zarur. Ayni çoğda mahalliy tadbirkorlar, hunarmandlar va oilaviy mehmon uylari egalari uçun munosib imkoniyatlar yaratilişi lozim.

Qadimiy zaminda amalga oşirilayotgan taşabbuslarni hududni kompleks rivojlantiriş, milliy merosimizni asraş va iqtisodiy salohiyatni röyobga çiqarişga qaratilgan muhim jarayon sifatida baholaş mumkin.

Buxoroning buyuk tarixi uning ma'naviy poydevori bölsa, zamonaviy infratuzilma, investitsiyalar va inson salohiyati porloq kelajagini belgilaydi. Bugun barpo etilayotgan har bir inşoot, amalga oşirilayotgan taşabbus, avvalo, aholi turmuş farovonligiga xizmat qilgandagina özining haqiqiy samarasini namoyon etadi.

Erkin GADOYEV,
Oliy Majlis Senatining
Byudjet va iqtisodiy masalalar qömitasi raisi.

KUN TARTIBIDA – JAMOAT XAVFSIZLIGI MASALASI

Xalq deputatlari Yangihayot tumani Kengaşining navbatdagi majlisida jamoat xavfsizligini ta'minlaş, jinoyatçilikning oldini oliş va huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligini oşiriş masalalari muhokama markazida böldi. Unda Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qömitasi raisi Qutbiddin Burhonov va qömita raisi örinbosari Bahrom Abdullayev iştirok etdi.

Muhokama

Yiğilişda Özbekiston Respublikasi Prezidentining tegişli qarori ijrosi doirasida 2026-yilning yanvar – sentyabr oylarida tumanda jinoyatçilikni jilovlaş, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini oliş, mahallalarda xavfsiz muhitni şakllantiriş va aholi bilan manzilli işlaş borasida amalga oşirilgan işlar atrofliça tahlil qilindi.



Qayd etilganidek, hisobot davrida tumanda firibgarlik jinoyati 78 tadan 43 taga, talonçilik 7 tadan 3 taga, oğir tan jarohati yetkaziş bilan boğliq jinoyatlar 6 tadan 4 taga, jami jinoyatlar soni esa ötgan yilning mos davridagiga nisbatan 0,6 foiz kamaygan.

Şuningdek, yoşlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar 210 tadan 161 taga, voyaga yetmaganlar jinoyatçiligi 18 tadan 9 taga, muqaddam sudlangan şaxslar tomonidan sodir qilingan jinoyatlar 120 tadan 95 taga va işsizlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar esa 63 tadan 51 taga qisqargan.

Ayrim turdagi jinoyatlar ösiş tendensiyasiga ega ekani tanqidiy muhokama qilindi. Xususan, bezorilik holatlari deyarli uç baravar köpaygan (5 tadan 14 taga), qasddan örtaça oğirlikdagi tan jarohati yetkaziş 5 tadan 9 taga, yengil tan jarohati yetkaziş holatlari 8 tadan 14 taga köpaygan. Oldini oliş mumkin bölgan jinoyatlar sonining 37 taga oşgani esa profilaktika işlarida mavjud kamçiliklarni bartaraf etiş zarurligini körsatmoqda.

